BUXORO VILOYATI PESHKU TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 14-iyun 266-2-39-Q/24 Peshku tuman hokimligi

Buxoro viloyati hokimining 2024-yil 12-iyundagi 280-2-0-Q/24-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag‘ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-209-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

Buxoro viloyati hokimining 2024-yil 12-iyundagi 280-2-0-Q/24-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag‘ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-209-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1 Buxoro viloyati hokimining 2024-yil 12-iyundagi 280-2-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Kinematografiya agentligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi, O‘zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi hamda ilmiy-ijodiyjamoatchilikning takliflari asosida 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan “Tirik tarix” filmlar turkumini yaratish dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Kinematografiyani rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy komissiya tuzilganligi hamda uning tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Filmlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko‘maklashuvchi milliy kengash tuzilganligi hamda uning tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 4-ilovaga muvofiqqo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilganligi;

Kinematografiya agentligi Milliy komissiya va Milliy kengashning ishchi organi etib belgilanganligi hamda ularga har chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar va mavjudmuammolarni tahlil qilgan holda hisobot kiritib borishi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar, davlat ulushi mavjud xo‘jalik birlashmalariga budjetdan tashqari mablag‘lar va qonunchilik hujjatlari bilan ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan tegishli sohalarga oid filmlar ishlab chiqarishga mablag‘larni yo‘naltirishga ruxsat etilganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Rajabov, tuman madaniyat bo‘limi (Sh.Turdiyev), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Ergashev) madaniyat markazlarida kinozallar tashkil qilish hamda ularning mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan jihozlanishini ta’minlasin.

4. Tuman madaniyat bo‘limi (Sh.Turdiyev), tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (E.Izzatov)ga tumandagi o‘rta-maxsusta’lim muassasalarida, o‘rta maktablarda tumanda joylashgan madaniyat markazlarida milliy filmlarning bepul namoyishlarini tashkil etish topshirilsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Rajabov, tuman madaniyat bo‘limi (Sh.Turdiyev), Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi (A.Toshov), tegishli korxona va tashkilotlar bilan birgalikda 2024-yil 1-oktabrga qadar xalqaro tajribani o‘rgangan holda yurtimizda “erkin iqtisodiy kinohududlar” va “Sinema park” tashkil qilish bo‘yicha tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasiga hamda tumanda kinoijodkorlar va ma’naviyat targ‘ibotchilari ishtirokida “Kinokarvon” tadbirlarini tizimli o‘tkazib borish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasiga takliflarni ishlab chiqib, viloyat madaniyat boshqarmasiga taqdim etsin.

6. “Peshku ovozi” gazetasi tahririyati (H.Sharopova)ga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-209-sonli qarori mazmuni va ijrosini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qaror ijrosining nazorati tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari A.Rajabov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **V.Qahhorov**